

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘KTAMOV DILYORBЕК TOJIBOYEVICH

**YILLIK TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARIDA 5000 METR
MASOFAGA YUGURUVCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH
METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

O‘ktamov Dilyorbek Tojiboyevich

Yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida 5000 metr masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi.....5

Уктамов Дилёрбек Тожибоевич

Методика подготовки бегунов на 5000 метров к соревнованиям на ежегодных подготовительных занятиях.....29

O‘ktamov Dilyorbek Tojiboevich

Methodology for preparing 5000-meter runners for competitions during annual training sessions.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘KTAMOV DILYORBЕК TOJIBOYEVICH

**YILLIK TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARIDA 5000 METR
MASOFAGA YUGURUVCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH
METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3740 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Niyazov Saxibjan Sabirjanovich**
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti xuzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E-binosi, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yengil atletika sport turi bo'yicha amaliyotda o'tkazilayotgan musobaqalarda sport raqobatining kuchayib borayotganligi sportchilar tayyorlash tizimini yangi metodikalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Yengil atletikaning yugurish turlari bo'yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimida sportchilarning kompleks tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kunda jahon miqyosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan sanalmoqda. Yugurish turlarida sportchilarni-yillik tayyorgarlik bosqichlariga saralash va mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish, nufuzli sport musobaqalariga tayyorlash jahon hamjamiyati e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. O'tkazilayotgan-yillik tayyorgarlikning bosqich va davrlarida mashg'ulotlarni olib borish, sportchilarning jismoniy, texnik-taktik, funksional, psixologik va integral tayyorgarligini takomillashtirish, mashg'ulot, musobaqaoldi va musobaqa faoliyatida sport formasini ushlab turish kabi vazifalarni hal etish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Jahonda sportchilar tayyorlash tizimida yengil atletikani yugurish turlariga saralash, tayyorgarlikning turli bosqichlari va davrlarida ularni sport musobaqalariga tayyorlash, mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mashg'ulot vazifalaridan kelib chiqib sportchilarning tayyorgarlik mashg'ulotlarini boshqarishda ular organizmining anatomik-fiziologik hamda psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish shuningdek, taqsimlash, yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sportchilarni tayyorlash tizimida ko'pchilik mutaxassislar tomonidan-yillik va ko'p-yillik tayyorgarlikning istiqbolli rejalari ishlab chiqilmoqda. Malakali jahon chempionatlari, kubok musobaqalari va Olimpiada o'yinlarida yangi sportchilarni yetishib chiqayotganligi doimiy ravishda tayyorgarlik dasturlarini-yildan-yilga takomillashgan metodlarini ishlab chiqish zaruratini yuzga keltirmoqda.

Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, kuchli bo'lib o'sishida yugurish turlarini bilan shug'ullanish imkoniyatlari oshirilqmoda. "Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlash"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Xususan istiqbolli sportchilarni saralash, tayyorlash va mahoratini oshirib, ular orasidan mamlakat terma jamoalariga sifatli sport zaxirasi va tarkibini shakllantirishning samarali tizimi yaratilmoqda. 5000 metr masofaga yuguruvchi sportchi-talabalarni oliy ta'lim muassasalari sharoitida musobaqalarga tayyorlash masalasi nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. OTM sportchi-talabalarini-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib xalqaro musobaqalarga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish disseratsiya mavzusini dolzarbligini belgilab beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni

Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, qabul qilingan farmon va qarorlarida hamda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarda oldimizga qo‘yilgan malakali sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilash, sportchilar zaxirasini yaratish, olimpiya o‘yinlariga litsenziyalar sonini sezilarli darajada ko‘paytirish vazifalarini amalga oshirish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda yengil atletikaning yugurish turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish va sportchilarni tayyorlash yuzasidan mahalliy olimlar va mutaxassislar K.T.Shakirjanova, R.Q.Qudratov, M.J.Abdullayev, M.S.Olimov, N.T.To‘xtaboyev, U.I.Sultonov, I.R.Soliyev, X.T.Rafiyev, A.M.Baratov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, M.S.Olimov va boshqalar² o‘rta va uzoq masofaga yuguruvchilarning mashg‘ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish, mashg‘ulot jarayonini boshqarish masalalarini ochib berishgan.

N.G. Ozolin, O.I.Pavlova, A.S. Chinkin, M.N. Chinkin, F.R. Zotova, V.V.Ivochkin, Yu.G.Travin, G.N.Korolev, G.N.Semayeva, V.N.Platonov, V.M.Maslakov, O.M.Mirzoyev va boshqalar tomonidan sportchilarning-yillik va ko‘p-yillik tayyorgarlik bosqichlarida kompleks tayyorlash bo‘yicha mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va boshqarish tizimini ilmiy asosda ishlab chiqqan³.

² Shakirjanova K.T. “Yengil atletikada sport mashg‘ulotlari asoslari”. O‘quv qo‘llanma. T.: 2008. - 72 b.; Qudratov R. “Yengil atletika”. Darslik. T.: 2012. - 320 b.; Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. “Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi”. Darslik. T.: 2017. - 482 b.; Soliyev I.R. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish // PhD dissertatsiya avtoreferati. Ch.: 2020. – 56-b.; Rafiyev X.T. “Yengil atletika turlarini o‘qitish uslubiyati”. O‘quv qo‘llanma. T.: 2021. 312 b.; Olimov M.S. Yugurish turlarida yengil atletikachi talabalarni tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari. DSc. diss-yasi. T.: 2022. – 260 b.; Baratov A.M. To‘siqlar osha yuguruvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomillashtirish. PhD diss-yasi. Ch.: 2023. – 138 b.

³ Озолин, Н.Г. Настольная книга тренера: Наука побеждать / Н.Г.Озолин. – М: Астрель, 2004. – 863 с; Павлова О.И. Педагогическая технология управления содержанием и структурой многолетней подготовки юных спортсменов в беговых видах легкой атлетики: автореф. дис...д-ра пед. наук / О.И.Павлова. - М., 2005. – 46 с.; Чинкин, А.С. Основы подготовки бегунов на длинные дистанции: метод. пособие / А.С. Чинкин, М.Н. Чинкин, Ф.Р. Зотова. –М.: Физическая культура, 2008. – 128 с.; Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: Советский спорт, 2009. – 108 с.; Платонов, В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском 350 спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник тренера высшей квалификации / В.Н.Платонов. – Киев: Олимпийская литература, 2015. – 680 с.; Маслаков, В.М. Соревновательная деятельность в беге на короткие дистанции, эстафетном и барьерном беге: технические и тактические аспекты спортивного мастерства легкоатлетов: метод. рекомендации / В.М. Маслаков, О.М. Мирзоев. – Воронеж: Научная книга, 2016. – 199 с.;

Sportchilar tayyorlash tizimida sportchilarning texnik tayyorgarliklari va ularni mashg'ulot jarayonlarida takomillashtirish yuzasidan V.G.Nikitushkin, F.P.Suslov, V.B.Zelichenok, V.P.Cherkashin, I.A.Privalova va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy yetakchi mutaxassislar A.N.Casado, B.I.Hanley, P.J.Reyes, A.E.Renfree, E.A.Maas, J.D.Bie, R.A.Vanfleiteren, W.Q.Hoogkamer, B.W.Vanwanseelemva boshqalar uzoq masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash va-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish hamda rejalashtirish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. M.V.Damasceno, L.A.Pasqua, A.E.Lima-Silva, B.R.Energylar tomonidan uzoq masofaga yuguruvchilarning mashg'ulot jarayonini boshqarish, pedagogik nazorat qilish, rejalashtirish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. J.M.Braz, Q.S.Mercier, A.D.Aftalion, B.P.Hanley, K.R.Barnes, A.E.Kilding⁴ va boshqalar uzoq masofaga yuguruvchilarning-yillik mashg'ulotlar jarayonini rejalashtirish, musobaqlarga tayyorlash tizimini ilmiy asoslangan variantini ishlab chiqish uslubiyatini tadqiq qilgan. Biroq, malakali sportchilarni tayyorlash tizimi, jumladan, uzoq masofaga yugurish turiga ixtisoslashgan sportchilar uchun mashg'ulot ishlanmalari, musobaqaoldi tayyorgarlik sikli, mashg'ulotlar hajmi, shiddati va yo'nalishi ilmiy obyekt sifatida deyarli o'rganilmagan.

Uzoq masofaga yuguruvchilar mashg'ulot jarayonlarini ilmiy jihatdan nazorat qilish, boshqarish va qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlash orqali mashg'ulot jarayonida ilg'or zamonaviy metodikalardan foydalangan holda uzoq masofaga yugurish bo'yicha talaba-sportchilarni musobaqalarga tayyorlash tizimini ilmiy asoslarini ishlab chiqish, o'quv-yiliga moslashtirilgan musobaqaoldi tayyorgarlik sikli, mashg'ulotlar hajmi, shiddati va yo'nalishi ilmiy obyekt sifatida chuqur tadqiq etish orqali talaba-sportchilarni musobaqalarga tayyorlashga bo'lgan talab tanlangan mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq erkin tadqiqot asosida "Yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida 5000 metr masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Никитушкин В.Г. Спорт высших достижений: теория и методика. учебное пособие для студентов, аспирантов, тренеров, преподавателей физического воспитания. / В.Г.Никитушкин, Ф.П.Сулов. – Москва: Спорт, 2017. – 320 с., Зеличенок В.Б., Черкашин В.П., Привалова И.А., Типовая программа спортивной подготовки по виду спорта «легкая атлетика» для этапов тренировочного (спортивной специализации), совершенствования спортивного мастерства, высшего спортивного мастерства. – М.: 2020. – 427 с.

⁴ Casado A, Hanley B, Jiménez-Reyes P, Renfree A. Pacing profiles and tactical behaviors of elite runners. In Journal of Sport and Health Science; 2020. <https://doi.org/10.1016/j.jshs.2020.06.011>.; Ellen Maas, Jorien De Bie, Riet Vanfleteren, Wouter Hoogkamer, Benedicte Vanwanseele. Novice runners show greater changes in kinematics with fatigue compared with competitive runners. Sports Biomech. 2018 Sep;17(3):350-360. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/14763141.2017.1347193>.; Damasceno M.V., Pasqua L.A., Lima-Silva A.E., Bertuzzi R. Energy system contribution in a maximal incremental test: correlations with pacing and overall performance in a 10-km running trial. Braz J Med Biol Res. 2015 Nov; 48(11):1048-54. doi: 10.1590/1414-431X20154787. Epub 2015 Sep 18.; Mercier Q., Aftalion A., Hanley B. A Model for World-Class 10,000 m Running Performances: Strategy and Optimization. Frontiers Frontiers in Sports and Active Living. January 2021;226.; Barnes, K.R. Strategies to improve running economy / K.R. Barnes, A.E. Kilding // Sports Medicine. – 2014. – PP. 37-56.

Tadqiqot maqsadi-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida 5000 metr masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarni-yillik tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish dasturini ishlab chiqish;

uzoq masofaga yuguruvchilarni tayyorgarlik darajasini funksional holati va individual xususiyatlarini aniqlash;

uzoq masofaga yuguruvchilarni musobaqa oldi va musobaqa davrlarida qo'llaniladigan mashqlar arsenalini aniqlash;

uzoq masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash dasturini ishlab chiqish va pedagogik tajribada samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 5000 metr masofaga yuguruvchi malakali sportchi talabalarni musobaqalarga tayyorlashda musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotlarini ADU o'quv dasturidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni inobatga olgan holda sportchi-talabalarning-yillik mashg'ulot yuklamalarini o'quv dasturiga xalaqit bermagan xolda ishlab chiqish va uni qo'llash uslubiyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini malakali 5000 metr masofaga yuguruvchi sportchi talabalarni musobaqalarga tayyorlashda zamonaviy mashg'ulot metodikasini qo'llashga qaratilgan mashg'ulot uslubiyatini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, pulsometriya, Garmin texnologiyasi va matematik-statistika kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali rejalashtirish uchun, har bir mezosiklning bitta mikrosiklida mashg'ulot jarayoniga dam olish oralig'i 60 daqiqadan 90 daqiqagacha bo'lgan ko'p seriyali 10 km takroriy yugurish yuklamasini kiritish yordamida tayyorgarlik jarayoni optimallashtirilgan;

uzoq masofaga yuguruvchilarning funksional tayyorgarligini rivojlantirish uchun, sportchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, hajmli, shiddatli, zarbdor va musobaqa mikrosikllarida yuklamalarni o'rta, katta, submaksimal va maksimal shiddat zonalarida bajarish usuli qo'llanilib, yuklamaning fiziologik samaradorligi oshirilgan;

uzoq masofaga yuguruvchilarning tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun, tayyorgarlikning musobaqa oldi va musobaqa mikrosikllarida yugurish tezligi va masofani his qildiruvchi bir maromli yugurish usulidan tashkil topgan ixtisoslashgan mashqlar arsenalidan foydalanish natijasida musobaqaga tayyorlik darajasi yaxshilangan;

uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqaga tayyorgarlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun, musobaqaga tayyorgarlik dasturiga davomiyligi 3, 6 va 10 daqiqali tezkor kuch chidamliligini rivojlantiruvchi yugurish yuklamalarini kiritish yordamida sportchilarning tezkor-kuch salohiyati va musobaqaviy chidamlilik darajasi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: 5000 metr masofaga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini mikro, mezo va makrosikllari yuklamalarini tuzilmasi ishlab chiqilgan;

5000 metr masofaga yuguruvchi sportchilarning funksional holatini inobatga olgan holda-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishning optimallashtirilgan tuzilmasi amaliyotga tatbiq etilib, uning samaradorligi aniqlangan;

5000 metr masofaga yuguruvchi sportchilar uchun-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarining tayyorgarlik bosqich va davrlarida qo'llaniladigan yuklamalar nisbatlari ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi amaliyotda isbotlangan.

Tadqiqotning ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, yurtimizda faoliyat yuritayotgan yengil atletika bo'yicha mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlar, xalqaro va respublikamizda faoliyat yuritayotgan sport sohasida keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, 5000 metr masofaga yuguruvchilar bilan olib borilgan tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar ularning jismoniy rivojlanishi, funksional, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash tizimi va uslublarini shakllantirish hamda takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish, o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayonlarini ilmiy asosda tashkil qilish, iste'dodli sportchilarni tarbiyalash ko'lamini kengaytirish, shuningdek,-yillik tayyorgarlikning bosqich va davrlarida mashg'ulotlarni rejalashtirish, tashkil etish va bajariladigan yuklamalar nisbatini sportchilarning jismoniy tayyorgarligini hisobga olib taqsimlash natijasida mashg'ulotlarni oqilona olib borish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, pedagogik kuzatuvlar va olib borilayotgan statistik ma'lumotlar hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari oliy o'quv yurtlaridagi yengil atletika to'garaklaridagi sport pedagogik maxoratini oshirish mashg'ulotlarida. Shu sportning alohida yugurish turlarini masofalariga yuguruvchilar, qolaversa ixtisoslashgan sportchilarni mashg'ulot jarayoniga ko'p seryali 10000 metr masofaga yugurish, takroriy dam olish oralig'i 60 daqiqadan 90 daqiqagacha bo'lgan vositalarni tayyorgarlikning musobaqa oldi mikro va mezotsikllariga kirgizish xisobiga, ularning nufuzli musobaqalarga samarali tayyorlash imkoniyatlari kengaytirilgan. Uzoq masofa yuguruvchi sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlarida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar mazmuni, hajmi, shiddati va yo'nalishini taqsimlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sportda kamolotga erishish guruhi 5000 metr masofaga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida musobaqalarga tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarni-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishda har mezosiklni bitta mikrosiklida mashg'ulot jarayoniga takroriy

yugurishda dam olish vaqtini 60 daqiqadan 90 daqiqagacha bo'lgan oraliqdagi ko'p seriyali 10 kmga yugurish yuklamasini kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi (uzoq masofaga yugurish texnikasini o'rgatish)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-140-sonli ruxsatnomasi). Natijada, talaba-sportchilarning 5000 m. masofaga yurusih natijalari 9,6% ga yaxshilangan;

uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulotlarini rejlashtirish uchun tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, hajmli, shiddatli, zarbdor va musobaqa mikrosikllaridagi yuklamalarni, o'rta, katta, submaksimal va maksimal shiddat zonalarida bajarish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Yengil atletika Federatsiyasi yugurishning chidamkorlik turlari bo'yicha terma jamoaning tarkibidagi uzoq masofalarga yuguruvchilarini mashg'ulot jarayonlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 10-apreldagi 02-16/3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijasida, O'zbekiston chempionati 2024 musobaqasida 1-o'rin, Yangi nafas 2024 musobaqasida 1-o'rin, Universiada 2023 musobaqasida bronza medal va bir qancha xalqaro yarim marafon musobaqalarida faxrli o'rinlarni egallagan;

uzoq masofaga yuguruvchilarni tayyorgarlik turlarini oshirish uchun ixtisoslashgan mashqlar arsenalini tayyorgarlikning musobaqa oldi va musobaqa mikrosikllarida, yugurish tezligi va masofani xis qildiruvchi bir maromli yugurish usulini mashg'ulot jarayoniga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Namangan davlat universitetining uzoq masofaga yuguruvchilarning mashg'ulot jarayonlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 10-apreldagi 02-16/3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, uzoq masofaga yuguruvchilarning sport natijalari 8,6% ga yaxshilangan;

uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulot metodikasini takomillashtirish uchun musobaqalarga tayyorlash dasturiga davomiyligi 3-6-10 daqiqali tezkor kuch chidamlilikni rivojlantiruvchi yugurish yuklamasini kiritish Andijon davlat universitetining yengil atletika ixtisosligi talabalarining mashg'ulot jarayonlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 10-apreldagi 02-16/3523-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sport musobaqalarida tadqiqotga jalb etilgan sportchilardan bir qancha Respublika chempionlari, 2 nafar Sport ustasi, 4 nafar Sport ustaligiga nomzod va 6 nafar I-razryadli uzoq masofaga yuguruvchilar tayyorlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan hamda 3 ta tezis (2 ta respublika va 1 ta xalqaro konferensiya to'plamida) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 5 ta rasm, 33 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uning zaruriyati, muammoning o'rganganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotini bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va ularni amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi bo'yicha to'liq ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Uzoq masofaga yuguruvchilarni-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini tuzilishi, tayyorgarlik darajasi, funksional xolatini sport natijalarga ta'siri bo'yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida uzoq masofaga yuguruvchi malakali sportchilarning mashg'ulot jarayonini rejalashtirish muammolari, bosqich va davrlarida mashg'ulotlarni tuzulishi bo'yicha zamonaviy qarashlar, mashg'ulotlarni-yillik mezosikllarida yuklamalarni bosqich va davrlar bo'yicha taqsimlanishiga doir ma'lumotlar, uzoq masofaga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarligini sport natijalariga ta'siri, funksional xolatini sport natijalariga bog'liqligi, musobaqaoldi, musobaqa va o'tish davrlarida qo'llanilgan vosita va usullarni mazmuni va uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish bo'yicha o'rganilgan va tahlil asosida ma'lumotlar keltirilgan. 5000 metr masofaga jaxon rekordchisi musobaqaoldi davrlarida qo'llanilgan mashg'ulot jarayonini tahlil qilib qaraydigan bo'lsak Kenenisa Bekele tayyorgarlik mashg'ulotlari xajmli, bir maromli, tezkor va shiddatli ishlashga rejalashtirilgan.

Uzoq masofaga yuguruvchi malakali sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport natijalari doimiy ravishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va uzluksiz bajariladigan sport mashg'ulotlariga bog'liq ekanligi bayon qilingan.

Uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning jismoniy rivojlanishini morfologik ko'rsatkichlari dinamikasi kelgusida ya'ni sportchilarni yuqori sport natijalariga erishishi lozim bo'lgan jihatlari yetakchi olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida uzoq masofaga yuguruvchi malakali sportchilarning mashg'ulot jarayonini boshqarish muammolari, bosqich va davrlarida mashg'ulotlarni tuzulishi bo'yicha ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, antropometrik usul, funksional holatni aniqlash, pedagogik tajriba va matematik statistik usullari, tadqiqotni tashkil qilish yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan pedagogik tadqiqotlar uch bosqichda tashkil etildi:

I bosqichda (2022-yil aprel-avgust) mavzu doirasiga oid me'yoriy xujjatlar, dastur va rejalar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tayyorgarlik dasturlari, hamda ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Jumladan, uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'llaniladigan yuklamalarni tayyorgarlik davri va bosqichlari bo'yicha mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni va yo'nalishlari muhokama etildi. Tahlil etilgan ilmiy-uslubiy ma'lumotlar, tadqiqot

natijalari, fikr mulohazalar asosida dissertasion ishining maqsadi va vazifalari, belgilanib daslabki tadqiqotlar o'tkazildi.

II bosqichda (2022-yil sentabr-2023-yil avgust) joriy tajribaoldi tadqiqotlari o'tkazildi. Jumladan, uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarni-yillik tayyorgarlik dasturi, mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni va yo'nalishlari, musobaqa natijalari, sportchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligi hamda ularning shakllanish dinamikasi tadqiqot ostiga olindi. Olingan natijalar individual, guruh va yalpi tartibda statistik uslublar yordamida tahlil etildi hamda muvofiq adabiyotlarda mavjud ilmiy ma'lumotlar va xulosalar doirasida muhokama etildi.

III bosqichda (2023-yil sentabr-2024-yil avgust) pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedagogik tajribaga har bir guruh 12 nafardan talaba sportchilardan iborat nazorat va tajriba guruhlariga bo'linib pedagogik tajribaga jalb qilindi.

Nazorat guruhiga mansub talaba-sportchilar amaldagi an'anaviy-yillik dasturga asoslangan mashg'ulotlarda ishtirok etishdi. Tajriba guruhidagi sportchi talabalar esa 2023-yil sentabr oyidan 2024-yil avgust oyigacha mashg'ulotlar jarayonida ishlab chiqilgan tayyorgarlik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan mashg'ulotlarda ishtirok etdilar. Mashg'ulotlar 3 akademik soatdan haftasiga 6 martadan o'tkazildi.

Ma'lumki uzoq masofalarga yugurish texnikasida shunday vaziyat borki sportchi muayyan muddat oralig'ida tayanchsiz holatda bo'ladi, ya'ni yuguruvchi bir oyoq bilan deysinib, gorizontol yo'nalishda sakraydi va ikkinchi oyoqqa tushib, yana deysinishni davom ettiradi. Uzoq masofaga yuguruvchi oyoqlarining bukuvchi va yozuvchi mushaklari portlovchi kuchi va qo'l harakati yugurish shiddatini belgilovchi omillardan sanaladi. Shuning uchun uzoq masofaga yuguruvchilarni sakrash qobiliyatini ham rivojlanganligi yugurish natijasiga ijobiy ta'sir etishini inobatga olib mashg'ulotlar boshida va oxirida tajriba guruhiga maxsus mashqlar qo'llanildi. Tadqiqot davomida olingan natijalarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi (\bar{X}), uning standart kvadratik og'ishmasi (σ), absolyut o'sishi (%), ko'rsatkichlar o'zgarishi qiymati va ishonchliligi (P) kabi statistik mezonlar orqali hisoblab tahlil etilib dissertatsiya ishi shakllantirilgan va rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning **“Uzok masofaga yuguruvchilarni pedagogik tajriba boshida jismoniy funksional va texnik tayyorgarligini rivojlanganlik darajasi”** deb nomlangan uchunchi bobida-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida malakali sportchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi tahlil qilingan va ishlab chiqilgan. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: Yugurishda saralashni to'g'ri tashkil qilish, majmualiy pedagogik nazorat, musobaqaoldi va musobaqa mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, mashqlar arsenalini to'g'ri ishlab chiqishdan iborat. Bu metodikasining amalga oshirilishi standart shart-sharoitlarda murabbiy va sportchilarni sport natijalarini yuqori darajaga ko'tarishlariga imkon beradi.-yillik tayyorgarlik bosqichlarida maxsus tayyorgarlik ko'rsatkichlari va musobaqa faoliyati natijalari o'rtasidagi o'zaro korrelyasion bog'liqliklar ko'rib chiqildi.

O'tkazilgan tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, saralash usullari va pedagogik nazorat metodlaridan foydalanib maxsus tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik hamda musobaqaoldi va musobaqa faoliyati tuzilmalarini hisobga olgan holda malakali sportchilarning musobaqalarga tayyorlash texnologisini ilmiy asoslangan optimallashtirilgan dasturi ishlab chiqilgan.

Ushbu ishlab chiqilgan metodika uzoq masofaga yuguruvchi malakali sportchilarning-yillik tayyorgarlik siklida sport musobaqalariga samarali tayyorlashga qaratilgan.-yillik tayyorgarlik bosqichlarida malakali sportchilar bilan mashg'ulotlarni, ularning funksional tayyorgarligini va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish asosida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Dastlabki pedagogik tajribalarda uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini, sportchilarning funksional tayyorgarligi darajasini (Garmin 735 XT) uskunasi yordamida o'rganib chiqdik va tahlil qildik.

O'tkazilgan pedagogik tajribada olingan natijalar quyidagicha bo'ldi. 100 m. masofaga yugurishda tajriba guruhi sportchilarining tezkor kuch ko'rsatkichlari o'rtacha $12,83 \pm 0,71$ soniyani, nazorat guruhida esa $12,94 \pm 0,69$ soniyani tashkil qildi; 1000 m. masofaga yugurish testida tezkor chidamlilik ko'rsatkichlari, mos ravishda tajriba guruhi sportchilari o'rtacha $2:53,03 \pm 6,43$ daq/soniyani, nazorat guruhida esa $2:55,20 \pm 7,14$ daq/soniyani tashkil qildi. Maxsus chidamlilik ko'rsatkichlariga mos ravishda 3000 m. masofaga yugurish testida tajriba guruhi sportchilari o'rtacha $9:17,98 \pm 22,56$ daq/soniya va nazorat guruhi sportchilari esa $9:21,70 \pm 21,00$ daq/soniyani tashkil qildi. 5000m. masofaga yugurish testida tajriba guruhi o'rtacha $15:54,23 \pm 24,96$ daq/soniyani tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilari esa $15:57,53 \pm 24,82$ daq/soniyani tashkil qildi. Tezkor portlovchi kuchni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan joyidan turib uzunlikka sakrash testida tajriba guruhi sportchilarining ko'rsatkichlari o'rtacha $224,0 \pm 9,19$ sm.ga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich $220,0 \pm 7,07$ sm.ni tashkil qildi. Uch hatlab sakrash testida tajriba guruhi sportchilarining ko'rsatkichlari o'rtacha $618,67 \pm 27,58$ sm.ga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichi $613,0 \pm 28,28$ sm.ni tashkil qildi. O'n hatlab sakrash testida tajriba guruhi sportchilarining ko'rsatkichlari o'rtacha $2091,75 \pm 40,31$ sm.ga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich $2079,0 \pm 57,28$ sm.ni tashkil qildi. Oyoqdan oyoqqa sakrab 100 m.ga yugurish testida tajriba guruhi sportchilarining ko'rsatkichlari o'rtacha $52,08 \pm 1,41$ martaga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich $52,08 \pm 1,41$ martani tashkil etdi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tadqiqotning boshida tajriba va nazorat guruhi malakali sportchilarining jismoniy tayyorgarligini shakllanganlik darajasi (n=12)

T/r	Testlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	100 m.ga yugurish, (soniya)	$12,83 \pm 0,71$	$12,94 \pm 0,69$
2.	1000 m.ga yugurish, (daq/soniya)	$2:53,03 \pm 6,43$	$2:55,20 \pm 7,14$
3.	3000 m.ga yugurish, (daq/soniya)	$9:17,98 \pm 22,56$	$9:21,70 \pm 21,00$
4.	5000 m.ga yugurish, (daq/soniya)	$15:54,23 \pm 24,96$	$15:57,53 \pm 24,82$
5.	Joyidan turib sakrash, (sm.)	$224,0 \pm 9,19$	$220,0 \pm 7,07$
6.	Uch hatlab sakrash, (sm.)	$618,67 \pm 27,58$	$613,0 \pm 28,28$
7.	O'n hatlab sakrash, (sm.)	$2091,75 \pm 40,31$	$2079,0 \pm 57,28$
8.	100 m.ga oyoqdan oyoqqa sakrab yugurish, (marta)	$52,08 \pm 1,41$	$52,08 \pm 1,41$

Jadvaldagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, tajriba va nazorat guruhi malakali sportchilarining ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farq mavjud emas. Lekin, ushbu ko'rsatkichlar yengil atletika sohasidagi yetakchi mutaxassislarining ishlaridagi

ma'lumotlar bilan taqqoslanganida, bizning tajribalarimizda ishtirok etgan sportchilarda yuqorida o'rganilgan jismoniy sifatlarni past darajada shakllangan degan xulosa kelib chiqadi.

Biz o'tkazgan tadqiqot yo'nalishi, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan vosita va usullarni aniqlashtirishni imkonini berdi.

Tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarini tadqiqot boshidagi natijalari tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilari o'rtasida deyarli farq yo'qligini ko'rsatdi. Ammo, yetakchi olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlar bo'yicha bizning sportchilarimiz ortda qolayotganligi kuzatildi.

Jismoniy rivojlanish insonni o'sish tana massasi hajmining undagi hujayra va to'qimalarning ko'payishi hisobiga oshib borishidir.

Uzoq masofaga yuguruvchi malakali sportchilarda ish qobiliyati, hatto sport natijasi, ustuvor jihatdan yurak-qon tomir va nafas olish organlarining funksional imkoniyati bilan belgilanadi.

Uzoq masofalarga yuguruvchilar jismoniy va funksional faolligini baholashda YuUS, AB quyi-yuqori, Genche sinovi, Shtange sinovi, O'TS, PWC₁₇₀ ishchanlik qobiliyatlariga oid ko'rsatkichlardan diagnostik mezon sifatida foydalanish orqali ularning funksional imkoniyatlarini aniqlashda ishonchli axborot hisoblanadi.

Uzoq masofaga yuguruvchi sportchilar organizmning aerob imkoniyatlari va chidamkorlik darajasini baholashda ko'pchilik olimlar qayd etilgan fiziologik ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadilar.

Biz tomonimizdan o'tkazilgan tajribada uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilarning funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlar o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tadqiqotning boshida tajriba va nazorat guruhi malakali sportchilarining funksional ko'rsatkichlarni shakillanish darajasi (n=12)

T/r	Fiziologik ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	Yurak urishlar soni (YuUS, zar/daq)	76,9±4,5	76,4±4,3
2.	Sistolik qon bosimi (SQB, mm.sm.us.)	120,1±4,5	120,7±3,9
3.	Diastolik qon bosimi (DQB, mm.sm.us.)	72,2±2,2	71,8±2,2
4.	Nafasni chiqarib ushlab turish (Genche sinovi)	20,4±3,8	21,7±3,7
5.	Nafasni olib ushlab turish (Shtange sinovi)	47,1±5,8	48,6±6,5
6.	O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS, ml)	2924±511	3279±491
7.	PWC ₁₇₀ (kgm/daq)	1425±185	1478±191

Uzoq masofalarga yuguruvchi malakali sportchilarni funksional ko'rsatkichlari quyidagicha ifodalandi. Tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilarida yurak urishlar soni bo'yicha mashg'ulotdan oldin tinch holatda o'rtacha ko'rsatkich 76,9±4,5 zar/daq.ga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich o'rtacha 76,4±4,3 zar/daq.ga teng bo'ldi. Uzoq masofaga yuguruvchilarda sistolik qon bosimi tajriba guruhi sinaluvchilarida o'rtacha ko'rsatkich 120,1±4,5 mm.sm.us.ga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich o'rtacha 120,7±3,9 mm.sm.us.ga teng ekanligi aniqlandi. Diastolik bosimi muvofiq ravishda o'rtacha 72,2±2,2 va 71,8±2,2 mm/s.u.ga teng ko'rsatkichlar bilan

ifodalangan. Ko'pchilik olimlar tomonidan uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini turli xil rejalashtirish dasturlarini berishgan, ularning fikricha-yillik mashg'ulot yuklamalari ommaviy sport darajalilar uchun 2500 – 4500 km.gacha, malakali uzoq masofaga yuguruvchilar uchun esa 3500 km dan 5500 km gacha yuklamalar rejalashtirilgan.

Biz malakali sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishda o'quv jarayonidagi yuklamalarini inobatga olib-yillik tayyorgarlik yuklamalarni quyidagicha rejalashtirdik. Biz tomonimizdan uzoq masofaga yuguruvchilar uchun-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan-yillik tayyorgarlik dasturini quyidagicha ifodalandi.

Biz tomonimizdan uzoq masofaga yuguruvchilar uchun tayyorgarlik dasturi ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan dastur bo'yicha uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilarning-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini optimal rejalashtirishga e'tibor qaratdik. 5000m masofaga yuguruvchi talaba-sportchilar uchun 1-yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari yuklamalarni xajmi o'rtacha 5134 km.ga teng deb rejalashtirdik. Shundan aerob rejimidagi yuklamalar 4565-km 88.9%ni tashkil etgan bo'lsa, aralash rejimdagi yuklamalar 435-km 8.47% ni tashkil etadi. Anaerob rejimidagi yuklamalar hajmi esa 75-km 1.47%ni o'rtacha rejalashtirildi. Maxsus yugurish va sakrash mashqlari xajmi 59-1.15% km ni tashkil etadi. Uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarni 2-yil tayyorgarlik mashg'ulotlari yuklamasini o'rtacha hajmi 5584 km.ni tashkil etdi. Shundan aerob rejimidagi yuklamamiz 4820-km 86.3% ni tashkil etgan bo'lsa, aralash rejim yuklamalari xajmi 484-km 8.67% ga teng bo'ldi. Anaerob rejimidagi yuklamalar hajmi 198-km 3.54%. Masofaga teng bo'ldi. Maxsus yugurish va sakrash mashqlari ikkinchi-yilda 82-km 1.47% ni tashkil etdi (6-7-javallarga qarang).

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan-yillik tayyorgarlik dasturi yuklamalarini quyidagicha taqsimladik.

1. Tayyorgarlik bosqichi boshida tortuvchi mezosiklda kirishtiruvchi mikrosiklni sentyabr oyining 1-4- haftalarida qo'llanildi.

2. Birinchi bazaviy bosqich: oktyabrning 1 haftasidan noyabr oyining 2- haftasigacha davom etishi rejalashtirildi.

3. Qishki maxsus jismoniy tayyorgarlik mezosiklida 1-2-3-4 zarbdor mikrosikllar noyabr oyining 3-xaftasidan dekabr oyining 2-3 haftasigacha davom etadi.

4. Qishki musobaqa davri mezosiklida yanvarning birinchi haftasidan fevral oyining 1-2 haftasigacha musobaqa mikrosikllarida ishtirok etdi.

5. Ikkinchi bazaviy tayyorgarlik bosqich fevral oyining 3- haftasidan mart oyining 3-4 xaftalarigacha funksional va maxsus jismoniy tayyorgarlik mezosikllari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi.

6. Baxorgi tayyorgarlik bosqichi: aprelning 1-haftasidan mayning 2 – haftasigacha (3-4 hafta) davom etdi.

7. Asosiy yozgi musobaqalar bosqichiga: tayyorgarlik va musobaqalarda ishtirok etish mayning 3-haftasidan iyulning 3 – haftasigacha davom etadi.

8. O'tish davri: avgust oyining 1-haftasidan sentyabr oyining 2 – haftasigacha tiklovchi mikrosikllar qo'llaniladi.

Uzoq masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilarga mo'ljallangan 1-yillik tayyorgarlik siklining tuzilish dasturi

T/r	Yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini tuzilishi	Davrlar	Tayyorlov			Musobaqa		Tayyorlov davri		Musobaqa				O'tish	Jami
		Bosqich	Yo'nal-tiril-gan	1bazaviy muvofiqlash-tiruvchi		Qishki musobaqa		2 bazaviy muvofiqlash-tiruvchi		Muso baqa-oldi	Asosiy musobaqa			O'tish	
		Oylar	IX	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	
Ko'rsatkichlar mazmuni		UJTvaFTni rivojlantirish mezosikli			MJT va TTT darajasini oshirish mezosikli		JT, FT, va TTT darajasini oshirish mezosikli		TTM va MCHni oshirish mezosikli				sport formasini saqlash, faol dam olish mezosikli		
1	Umumiy tayyorgarlik mashg'ulotlari soni	24	25	24	24	24	22	24	24	24	24	24	25	288	
2	Umumiy mashg'ulotlar soati	72	75	72	72	72	66	72	72	72	72	72	75	870	
3	Yuklamalarning umumiy hajmi, km	440	488	456	421	428	428	442	415	412	390	392	422	5134	
4	Aerob rejimdagi yuklamalar hajmi (YUQS 155 zarba/daq), km)	398	445	384	378	385	375	390	362	370	346	346	386	4565	
5	Aralash yo'nalishli yuklamalar hajmi (YUQS 156-175 zarba/daq), km	38	35	54	34	34	38	34	36	32	34	36	30	435	
6	Anaerob rejimdagi yuklamalar hajmi (YUQS 180 zarba/daq. dan yuqori), km	2	6	12	3	3	10	12	9	6	6	6	0	75	
7	Maxsus yugurish va sakrash mashqlari, km	2	2	6	6	6	5	6	8	4	4	4	6	59	
